

"KECHA VA KUNDUZ" --- ZEBI HIKOYASI

Ibrohimova Mohlaroy Abdubannob qizi
Qo'qon Davlat Universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani XX asr boshidagi Turkiston hayoti, mustamlaka davri fojiasi va inson taqdirini ochib beruvchi o'zbek adabiyotidagi eng buyuk asarlardan biridir. Asarning asosiy mazmuni Zebi obrazi, ijtimoiy muhit va ramziy ma'nolarga tayanadi. So'zboshining "Hamal keldi --- amal keldi" sarlavhasi bilan boshlanishi "Hamal — eski shamsiy taqvimdagi oy nomi bo'lib, taxminan 22-martdan 21-aprelgacha bo'lgan davrni bildiradi. Bu davr bahorning boshlanishi, tabiat uyg'onadigan payt hisoblangan.. Amal — ish, mehnat, harakat degan ma'nolarni anglatadi. Shuning uchun "Hamal keldi — amal keldi" degani: bahor kelishi bilan insonlar ham mehnatga kirishadi, dalalar haydaladi, ekin-tikin ishlari boshlanadi, hayot jonlanadi degan ma'noni bildiradi. Asar inson va jamiyat hayotidagi qorong'ulikdan yorug'likka o'tish jarayonini anglatadi. Zebi ismli yosh qizning ruhiy holati tasvirlanadi. U ilgari ko'k (ko'kat) terish bahonasida qishloq chetlariga, dalalarga chiqib kelgan va shu sayohatlar uning qalbida erkinlik, kenglik, uzoq joylarga intilish hissini uyg'otgan. Uy ichidagi tor muhit unga tobora zerikarli tuyula boshlaydi. Ertalab Zebi hovlini supurayotgan paytda eshikning shovqin bilan ochilishi uni cho'chitadi. Chunki otasi uyda qattiqqo'l, diniy odatlarga berilgan, ammo insoniy fazilatlari mukammal bo'lmagan kishi sifatida tasvirlanadi. Shu sababli Zebi har qanday kutilmagan harakatdan seskanadi. Keyin eshikdan uning tengdoshi Salti (Saltanat) kirib keladi. U paranjiga o'ralgan holda kelgan bo'lsa-da, ichkariga kirishi bilan paranjini tashlab, bolalarcha quvonch bilan Zebini quchoqlaydi. Ikki qizning samimiy uchrashuvi ularning beg'ubor yoshligini ko'rsatadi. Salti ertalab erta kelishining sababini aytmoqchi bo'ladi. Shu yerda parcha hayajonli nuqtada to'xtaydi.

Kalit so'zlar: Zebi, sevgi, erkinlik, asar, roman, hayot, inson, joy, muhabbat, tuyg'u, fazilat.

Kirish

Asarda o'n besh yoshga qadam qo'ygan Zebi obrazi orqali beg'ubor, sodda, orzulari hali so'nmagun yosh qiz timsoli yaratiladi. Zebi ko'k terish bahonasida bir necha marta keng hovlilarga, dala va qirlarga chiqib kelganidan so'ng, uning qalbida olis joylarga, kenglikka, tabiat bag'riga intilish hissi kuchayadi. Bu holat faqatgina qishloq manzaralariga bo'lgan qiziqish emas, balki qizning ichki dunyosidagi erkinlikka bo'lgan ehtiyojni anglatadi. U yashayotgan muhit tor, tartib-qoidalari qattiq, ayniqsa otasining sovuq va hukmron fe'li sababli uning hayoti doimo ehtiyotkorlik va qo'rquv ichida o'tadi. Shuning uchun ham dala va qirlar Zebi uchun oddiy joy emas, balki ko'ngli erkin tortadigan, o'zini yengil his qiladigan makon sifatida namoyon bo'ladi.

Zebi hovlini supurayotgan paytda eshikning shovqin bilan ochilishi uning ko'nglini bir zumda bezovta qiladi. Bu holat qizning ichki ruhiy holatini ochib beradi. U otasining

xarakterini yaxshi biladi va uning har qanday qadamidan cho'chiydi. Yozuvchi Zebining qo'rquvini oddiy so'zlar bilan emas, balki uning harakatlari orqali ko'rsatadi: qo'lidagi supurgisi bilan qotib qolishi, eshik tomonga tikilishi, ichki hayajoni tasvirlanishi orqali qahramonning ruhiy dunyosi ochiladi. Bu psixologik tasvir Cho'lpon ijodining kuchli tomonlaridan biridir.

Eshikdan kirib kelgan kishi esa Zebi kutganidek otasi emas, balki uning tengdoshi Salti bo'ladi. Salti obrazi asarda quvonch, samimiyat va yoshlik timsoli sifatida berilgan. U paranjiga o'ralgan holda keladi, lekin uyga kirishi bilan uni tashlab, bolalarcha quvonch bilan Zebini quchoqlaydi. Bu holatda yozuvchi ikki xil dunyoni ko'rsatadi: tashqi hayotdagi cheklovlar va inson qalbidagi tabiiy erkinlik. Salti ham o'sha davr qizi, u ham paranja kiyishga majbur, biroq uning qalbida quvonch va hayotga muhabbat saqlanib qolgan.

Zebi va Saltining uchrashuvi juda samimiy tasvirlangan. Ularning kulishi, suhbatlashishi, bir-birlariga o'zlarining kundalik hayotlari haqida gapirib berishi oddiy do'stlik holati bo'lib ko'rinsa-da, aslida bu ikki yosh qizning qattiq muhit ichidagi ozgina quvonchli damlari edi. Ularning supurgi talashib o'ynashi ham shunchaki hazil emas. Bu holat qish davomida yig'ilib qolgan g'am, siqilish va zerikishning bir zumga chiqib ketishi edi. Cho'lpon bu voqea orqali inson qalbi doimo yorug'lik va quvonchga intilishini ko'rsatadi.

Saltining erta tongda kelishining sababi ham qizlarning hayotidagi muhim voqeaga bog'liq edi. U dugonasi Enaxonnikiga borishni taklif qiladi va Zebini ham o'zi bilan olib ketmoqchi bo'ladi. Zebi bu xabarni eshitib, ich-ichidan quvonadi. Chunki uning uchun bu safar oddiy mehmondorchilik emas, balki tor va zerikarli hayotidan bir oz uzoqlashish, yangi taassurotlar olish imkoniyati edi. Zebining "Qachon?" degan qisqa savolida ham katta ma'no bor. Bu so'z orqali uning ichki orzusi, ketishga bo'lgan kuchli istagi seziladi. Cho'lpon birgina qisqa gap orqali qahramonning butun ruhiy holatini ochib bera olgan.

Ammo bu quvonch oldida katta to'siq bor edi. Bu to'siq — Razzoq so'fining roziligi edi. Zebi ham, Salti ham uning qanday odam ekanini yaxshi bilishardi. Razzoq so'fi oilada hamma narsani o'zi hal qiladigan, ayollarning fikriga quloq solmaydigan, qattiqqo'l inson sifatida tasvirlanadi. U tashqi ko'rinishda dindor, ibodat qiluvchi odam bo'lsa-da, uning fe'l-atvorida mehr, yumshoqlik va tushunish yetishmaydi. Cho'lpon shu obraz orqali faqat tashqi ko'rinishdagi dindorlikni emas, balki insonning ichki axloqi va munosabati muhim ekanini ko'rsatadi.

Qurvonbibi obrazi esa mehribon ona timsolidir. U qizining baxtini, quvonchini o'ylaydi va Salti aytgan taklifga darhol rozilik beradi. Uning uchun dunyodagi eng katta baxt — qizining xursandchiligi. Ammo Qurvonbibi ham erining hukmi ostida yashaydi. U yaxshi niyatli bo'lsa-da, oiladagi asosiy qarorlarni mustaqil qabul qila olmaydi. Bu orqali yozuvchi o'sha davr ayollarining og'ir ahvolini ko'rsatadi: ular mehribon ona bo'lishlari mumkin edi, ammo jamiyatdagi mavqelari va oiladagi huquqlari cheklangan edi.

Parchada Razzoq so'fi obrazi ayniqsa katta ahamiyatga ega. U uyga kirishi bilan qizlarning quvonchini buzadi. Uning "Bu nima qiyomat!" deb baqirishi oddiy tanbeh

emas, balki eski qarashlarning, qattiqqo'llikning va insoniy quvonchga qarshi turuvchi muhitning ifodasidir. Zebi va Saltining kulgisi hayot va yoshlik belgisi bo'lsa, Razzoq so'fining jahli sovuq va qorong'i muhit ramzidir.

Cho'lpon Razzoq so'fini tasvirlashda kinoya va tanqid usulidan foydalanadi. U bu obraz orqali jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni fosh qiladi. Chunki haqiqiy e'tiqod insonni mehribon, adolatli va kechirimli qilishi kerak. Ammo Razzoq so'fi tashqi ibodatlarga amal qilsa-da, o'z oilasining quvonchini tushunmaydi. Shu sababli u ma'naviy jihatdan qashshoq inson sifatida ko'rsatiladi.

Ushbu parchada "kecha" va "kunduz" tushunchalarining ramziy ma'nosi ham seziladi. "Kecha" — jaholat, qo'rquv, eski urf-odatlar va inson erkinligini cheklovchi muhitni bildiradi. "Kunduz" esa — yorug'lik, ma'rifat, erkinlik va yangi hayot istagini anglatadi. Zebi va Saltining quvonchi ana shu "kunduz"ga intilishning ifodasidir.

Parchada ko'plab badiiy vositalardan foydalanilgan. Qarama-qarshilik san'ati orqali qizlarning quvonchi bilan Razzoq so'fining sovuqqonligi yonma-yon qo'yiladi. Psixologik tasvir orqali Zebining ichki kechinmalari ochiladi. Ramziy tasvirlarda esa dala va qirlar erkinlikni, paranja cheklovni, yopiq hovli esa tor hayotni ifodalaydi. Yozuvchi oddiy voqealar orqali katta falsafiy xulosalar chiqaradi.

Umuman olganda, ushbu parcha Cho'lponning inson ruhiyatini chuqur tasvirlay olganini ko'rsatadi. Zebi obrazi orqali yozuvchi yosh qizlarning orzulari, beg'uborligi va erkinlikka intilishini ifodalagan. Salti obrazi quvonch va samimiyatni aks ettirsa, Razzoq so'fi obrazi jaholat va qattiqqo'llik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Parcha orqali yozuvchi o'sha davr jamiyatidagi muammolarni, ayollarning og'ir hayotini va inson qalbining ozodlikka bo'lgan cheksiz intilishini chuqur badiiy mahorat bilan yoritgan.

Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani o'zbek adabiyotining eng buyuk asarlaridan biri bo'lib, unda Zebi, Akbarali va Miryoqub kabi qahramonlar orqali mustamlaka davridagi o'zbek jamiyati, ayollar huquqsizligi va ijtimoiy adolatsizlik fosh etiladi. Roman ikki qismdan — "Kecha" va "Kunduz" deb nomlangan kitobdan iborat.

Kecha" qismi: Eski zamon, qorong'i hayot, asorat va johillik muhitini ko'rsatadi. Bu bo'limda asosan Toshkent atrovidagi qishloqlarning an'anaviy turmushi, feodalchilik illatlari tasvirlangan."Kunduz" qismi: Uyg'onish, erkinlikka intilish, yangi hayot nafasi va o'zgarishlar davrini ifodalaydi. Yozuvchi xalqning ko'zi ochilib, adolatni izlay boshlaganini ko'rsatmoqchi bo'lgan.Zebi: Zo'ravonlik qurboni bo'lgan begunoh, yosh va orzu-havasli o'zbek qizi. Uning taqdiri jamiyatdagi adolatsizliklarni yaqqol ko'rsatadi.Akbarali: Boy, feodal tuzum vakili, biroq Zebi hayotini ostin-ustun qilgan murakkab xarakter egasi.Miryoqub: Manfaatparast, o'z shaxsiy foydasini hamma narsadan ustun qo'yadigan yuzaki ziyoli qiyofasi.Asar o'zbek xalqining XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini o'ta haqqoniy ochib bergan."Kecha" va "Kunduz" so'zlari shunchaki vaqt ma'nosini emas, balki xalq ongining qorong'ulikdan yorug'likka — ozodlikka intilish jarayonini anglatadi.

Kecha va Kunduz“ romanida xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor orzulari ifodalangan. Unda mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og'ir kulfat-u, mashaqqatlarga to'liq hayoti jonli

voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta'sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri bo'lgan go'zal va xushovoz, sodda va huquqsiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi. Muallif Zebi taqdirida, Razzoq so'fi va Qurbonbibi taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayotini yaqqol ko'rsatib beradi. Asar tarjimasini amalga oshirgan tarjimon, osiyoshunos tadqiqotchi S.Dyuduanon 1962-yili Belgiyada tavallud topgan, ayni paytda Parijdagi Sorbonna universitetida ilmiy-ijodiy faoliyat olib bormoqda. Cho'lponning „Kecha va kunduz“ romani fransuz tiliga mahorat bilan tarjima qilingan, unda adib qo'llagan leksik birliklar, qahramonlar his-tuyg'ulari, tabiat manzaralari, xususan, o'zbek xalqining milliy mentalitetini ifodalagan jummalarga fransuzcha muqobillar va izohlar muvaffaqiyatli topilgan. Amerikalik Kristofer Fort 1988-yilda Minnesota shtatida tug'ilgan. 2010-yilda Michigan davlat universitetini siyosatshunoslik va rus tili yo'nalishi bo'yicha tamomlagan. Ohio shtati universitetida magistr darajasini olgan. Ular O'zbekistonda bir necha yil yashab, o'zbek tilini o'rgandilar. "Yaqinda Cho'lponning „Kecha va kunduz“ romanini ingliz tiliga tarjima qildim va „Akademik Stadis Press“ nashriyoti tomonidan chop etildi. Men Cho'lpon asari tarjimasiga kirishdim, chunki romanning ilk sahifalarini o'qib, menda o'zbek tilining o'ziga xos uslubi sehlani qolgan edi. Asarda Navoiy singari Cho'lpon ham o'zbek tilining o'ziga xos imkoniyatlarini to'liq ochib beradi. Asarda Razzoq So'fning qizini ovozi nomahramlarga eshittirmasligi o'sha davr muhitidagi katta tarixiy voqealarni yetkazishga guvoh bo'lamiz. Bosh qahramon Zebi adolatsiz sud hukmi bilan 7 yilga surgun qilinadi, asarda kundoshlar o'rtasidagi zamas-zamon ziddiyatlar va ma'naviy "zahar" muhiti ko'rsatiladi. Muhitning johilligi, jamiyatdagi adolatsizliklar va tuban munosabatlar qurboni bo'ladi. Asarda eski zamon illatlari, xususan, oiladagi ko'pxotinlilik va kundoshlik o'rtasidagi g'irrom raqobat jamiyatga tarqalgan ma'naviy zahar sifatida talqin qilinadi. Asar mustamlaka davridagi mahalliy hayot, feodalizm qoldiqlari va jamiyatdagi adolatsizliklarni fosh qiladi. Zebining fojiasi – butun bir xalqning, ayniqsa huquqsiz ayollarning og'ir qismati va davr ziddiyatlarining badiiy ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, romanda xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan barcha ziddiyatlar ifodalangan. Jafokash xalqning, xususan, xotin-qizlarning fojeiy hayoti tasvirlangan. Qahramonlar taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayoti yaqqol ko'rsatib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. „AMERIKALIK OLIM “KECHA VA KUNDUZ” ROMANINI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILDI“ (o'zbek) (4-fevral 2020-yil). Qaraldi: 7-aprel 2023-yil.
2. Abdulhamid Cho'lpon, "Kecha va kunduz", Toshkent-2019.

